

TISH SEZGIRLIGINI KAMAYTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti
Somatologiya yo'nalishi 3- kurs
talabasi O'ktamova Shaxnozabonu

Annotatsiya; Mazkur maqolada tish sezgirligi (dentin gipersensitivligi)ning kelib chiqish sabablari, patogenezi va klinik belgilari tahlil qilinadi. Tish sezgirligi stomatologik amaliyotda keng tarqalgan muammo bo'lib, bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada pasaytiradi. Ushbu maqolada sezgirlikni kamaytirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar – remineralizatsion terapiya, lazer texnologiyalari, biokeramik va nanokompozit materiallar, desensitizatsion gel va pastalar, shuningdek, profilaktik choralarining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalari tish sezgirligini kamaytirishda kompleks yondashuvning samaradorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar; tish sezgirligi, dentin gipersensitivligi, remineralizatsiya, lazer terapiyasi, desensitizatsion vositalar

Tish sezgirligi (dentin gipersensitivligi) terapeutik stomatologiyada keng uchraydigan patologik holat bo'lib, u issiq, sovuq, shirin yoki nordon ta'sirida tish yuzasida keskin og'riq sezilishi bilan namoyon bo'ladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholining 30–40% qismi hayotining turli davrlarida ushbu muammo bilan murojaat qiladi. Ayniqsa, yosh va o'rta yoshdagи bemorlar orasida keng tarqalgan. Sezgirlikning asosiy sababi dentinning ochilishi va undagi dentinal naychalar orqali tashqi ta'sirlarning pulpa nerv tolalariga tez o'tishidir. Bugungi kunda ushbu muammoni bartaraf etish uchun ko'plab zamonaviy usullar ishlab chiqilgan bo'lib, ular nafaqat simptomatik davolash, balki dentin yuzasini himoya qilish va qayta mineralizatsiya qilishga qaratilgan. Tish sezgirligining eng ko'p uchraydigan sabablari quyidagilardir: emal eroziyasi – kislotalar ta'sirida emalning yemirilishi. Abfraksiya va attritsiya – noto'g'ri tishlash yoki bruksizm natijasida qiyshiq kuchlanish oqibatida dentinning ochilishi. Tish go'shtining chekinishi – parodontal kasalliklar tufayli ildiz yuzasi

ochilishi. Noto‘g‘ri gigiyena – qattiq cho‘tkadan foydalanish, noto‘g‘ri yuvish texnikasi. Endodontik va ortodontik manipulyatsiyalar – tish yuzasining qo‘srimcha mexanik ta’sirga uchrashi. Patogenez asosida “gidrodinamik nazariya” yotadi. Unga ko‘ra, dentinal naychalardagi suyuqlik harakati odontoblastlar orqali nerv tolalarini qo‘zg‘atadi va natijada og‘riq signali yuzaga keladi. Ilgari tish sezgirligini kamaytirishda asosan fluoridli vositalar, kalsiyli eritmalar va desensitizatsion pastalar qo‘llanilgan. Ular vaqtincha samara bergan bo‘lsada, uzoq muddatli natija ko‘p hollarda kuzatilmagan. Kaltsiy-fosfat komplekslari (CPP-ACP, bioaktiv shisha) tish yuzasida mineral qatlam hosil qilib, dentinal naychalarni yopadi. Nano-gidroksiapatit kristallari emal strukturasiga kirib, sezgirlikni pasaytiradi. Lazer nurlari dentin yuzasida oqsilni koagulyatsiya qilib, naychalarni yopadi va pulpa sezgirligini pasaytiradi. Ayniqsa, Er:YAG va Nd:YAG lazerlari yaxshi natija beradi. Biokeramik sementlar (MTA – mineral trioxide aggregate) va nanokompozit materiallar tish yuzasini tiklashda sezgirlikni kamaytirishda yuqori samaradorlik ko‘rsatadi. Stronsiy xlorid, kaliynitrat asosidagi vositalar nerv qo‘zg‘aluvchanligini kamaytiradi. Fluoridli laklar tish yuzasida mustahkam pylonka hosil qiladi. So‘nggi klinik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki: Lazer terapiyasi 80% hollarda sezgirlikni 1-2 seansdan so‘ng kamaytirgan. Nano-gidroksiapatit pastalari muntazam qo‘llanganda 4 haftada sezilarli natija bergan. Kompleks yondashuv (gigiyena + remineralizatsiya + lazer) eng barqaror samara ko‘rsatgan.

Xulosa;

Tish sezgirligi stomatologiyada keng tarqalgan, lekin zamonaviy usullar yordamida samarali nazorat qilish mumkin bo‘lgan muammolardan biridir. Remineralizatsion terapiya, lazer texnologiyalari, biokeramik materiallar va desensitizatsion vositalar kombinatsiyasi bemorlarning hayot sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, profilaktika choralarini va to‘g‘ri gigiyena odatlari davolashning ajralmas qismi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Addy M., West N.X. "The role of toothpaste in the management of dentine hypersensitivity." *Clin Oral Investig.* 2013.
2. Orchardson R., Gillam D.G. "Managing dentin hypersensitivity." *J Am Dent Assoc.* 2006.
3. West N.X. "Dentin hypersensitivity: preventive and therapeutic approaches." *Clin Oral Investig.* 2013.
4. Cummins D. "Dentin hypersensitivity: from diagnosis to a breakthrough therapy for everyday sensitivity relief." *J Clin Dent.* 2009.